

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov</b> Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
PEDAGOGIKA	
<b>B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov</b> Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
<b>Ким Владимир</b> Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов .....	15
<b>А.Н.Амонов</b> Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста.....	20
<b>N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
<b>O.Q.Xasanova</b> Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati .....	28
<b>M.E.Abdullayev</b> O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarining tarbiyaviy imkoniyatlari .....	34
<b>B.Sh.Turg'unboyev</b> Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar .....	37
<b>X.A.Kadirova</b> Tibbiyot oliygohlarida tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
<b>S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov</b> Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori .....	49
<b>D.K.Karimov</b> Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
<b>K.F.Nazarova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
<b>J.Dj.Sultanov</b> Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
<b>X.X.Xasanbayev</b> Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
<b>O'.R.Maxmudov</b> O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
<b>I.Y.Masharipov</b> Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili.....	71
<b>F.O.Qo'ysinova</b> Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi .....	75
<b>R.X.Ibragimov</b> Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish .....	78
<b>A.Tuychiyev</b> Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

**TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH VA TA'LIM  
TEKNOLOGIYALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ И  
ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ****USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN THE EDUCATION SYSTEM AND FEATURES OF  
EDUCATIONAL TECHNOLOGIES****Tuychiyev Ashurali<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodika kafedrası  
o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada Yaponiya, Germaniya, Fransiya, AQSH kabi ilg'or xorijiy ta'lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek ta'lim tizimida texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari e'tirof etilgan.*

**Аннотация**

*В статье кратко анализируются структура, опыт и современные образовательные программы передовых зарубежных образовательных систем, таких как Япония, Германия, Франция и США. Также признаются уникальные аспекты технологий в системе образования.*

**Abstract**

*The article briefly analyzes the structure, experience and modern educational programs of advanced foreign educational systems such as Japan, Germany, France, and the USA. Also, the unique aspects of technologies in the educational system are recognized.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tizim, modernizatsiya, xorijiy tajriba, texnologiyalar, zamonaviy, pedagogik.

**Ключевые слова:** образование, система, модернизация, зарубежный опыт, технологии, современное, педагогическое.

**Key words:** education, system, modernization, foreign experience, technologies, modern, pedagogical.

**KIRISH**

Ta'lim tizimida ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart sharoitlar yaratadi. O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati hurmatlash, ta'lim tarbiyaning uzviy bog'liqligi bu jarayonni har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'lantirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart- sharoitlar yaratish. Uzluksiz ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Oldimizda ta'lim mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlari, o'quv dasturlarining uzviyligini tahlil qilish, ularning har bir fan bo'yicha bosqichlar orasida takroriylikining oldini olish bo'yicha ishlar hamda uzviyligi ta'minlagan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Oldimizda ta'lim mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlari, o'quv dasturlarining uzviyligini tahlil qilish, ularning har bir fan bo'yicha bosqichlar orasida takroriylikining oldini olish bo'yicha ishlar hamda uzviyligi ta'minlagan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi" hamda "Oliy ta'lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqilishi zarurligi hamda mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini ikki barobarga qisqartirish to'g'risida" aniq vazifalarni belgilab bergan edi. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad, maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim sohasi tubdan yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Rossiya Federasiyasida ham o'ziga xos tajriba shakllangan. 2022-yilda O'zbekiston Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturida (Program for International Student Assessment, PISA) ishtirok etadi. O'zbekistonni ushbu xalqaro dasturga tayyorgarlik ko'rishiga Rossiya ta'lim akademiyasining Ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti Ta'lim sifatini baholash markazi ko'maklashmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonlik yoshlar tomonidan Yaponiyada ta'lim olishga qiziqish katta va yapon tilini mamlakatimiz yigit-qizlari qiziqib o'rganmoqda. Mamlakatimizda hozirgi kunda oltita oliy o'quv yurti ta'lim dasturlariga yapon tilini o'rganish kiritilgan. Shuningdek, Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkiloti (JICA)ning yordami bilan bir qator oliy o'quv yurtlarida yapon tilini o'rganish markazlari ochilgan. Bundan tashqari Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida ikki mamlakatning ta'lim va madaniyat sohasidagi aloqalarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladigan, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan Yaponiya tadqiqotlari tahlil markazining ochilish marosimi o'tkazildi. Yaponiya bizning strategik hamkorimizdir va Yaponiya bilan mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari hamda infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ko'p ishlar qilinib kelinmoqda. Jahondagi ko'plab rivojlanayotgan davlatlar Yaponiya iqtisodiyoti tajribasini, uning bosib o'tgan yo'llarini tahlil qilgan holda o'z mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida qo'llay olgan. Jumladan, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Taylan kabi mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarda aynan Yaponiya tajribasining ko'plab jihatlardan unumli foydalanilgan. Shuning uchun ham Yaponiya iqtisodiyotini hamda rivojlanish modelini tahlil qilgan holda uning ba'zi bir jihatlari O'zbekistonda ham qo'llash manfaatli bo'ladi. Shu tufayli ikki mamlakat o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish yana bir ustuvor maqsaddir.

Shu sababli ham, bilimdon, tashabbuskor, jamiyatda faol va o'z mehnatida bilan dunyoni zabt etaoladigan shaxs shakllantirilishi lozim. O'ylaymanki, hozirgi davr nuqtai nazaridan kelib chiqib bunday talablarga javob bera oladigan va yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirishda quyida mezonlarni tashkil etilish muhim ahamiyat kasb etadi:

- Zamonaviy va ilg'or ta'lim texnologiyalari
- Raqamli texnologiya zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiya
- Xalqaro tajribalar

### NATIJALAR

Avvalo ta'lim texnologiyalari haqidagi tus hunchaga urg'u bersak, ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, o'quv materiallarini tanlash va strukturalashdan, ta'lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tashkil topganligi uning tub mohiyatini ochib beradi. Vaholangki, optimallik va samaradorlik darajasini noan'anaviy usullarini ta'limga olib kerish va uning ilg'origini ta'minlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tashkil etishga zamin yaratadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyati shundan iboratki, u mavjud texnologiyalari bilan bir safda turadi, buning sababi har bir texnologiya o'zining metodi, shakli, uslubi va qo'llanish doirasiga egaligidir. Ammo ta'kidlab o'tilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tubdan farq qilib, ular murakkab va tushunish ancha chigal bo'lgan kompleks tushuncha yoki pedagogikaga xos bo'lgan bilimlar sohasini aniq va tushunarli ifoda eta olishi bilan mavjud texnologiyalardan farq qiladi. Masalan, "Klaster" metodi, "3X4" metodi, "Bumerang" metodi, "Iyearxiya" metodi, "Muammoli ta'lim" metodi, "Keys stadi" metodi va bu metodlarni ko'plab davom ettirishimiz mumkin. Quyida keltirib o'tilgan metodlar ta'limda joriy etilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar turkumi bo'lib, ularning maqsadi bilimlarni puxta egallashga ko'mak berish, samaradorlikni ta'minlash ongni yuksaltshtirish va talabalarni har xil vaziyatlarga moslashuvchanligini ta'minlashdir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan birgalikda birlasha oladi, o'z mazmun mohiyatini boyitib boradi va ta'lim jarayonida samarali yondashuvning yangi imkoniyatlarini ochib bera oladi. Bunga misol tariqasida axborot

texnologiya, raqamli texnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'unlashuvini misol qilib keltirish mumkin.

### MUHOKAMA

Fikrimizni oydinlashtiradigan bo'lsak, axborot texnologiya, raqamli texnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'unlashuvi o'rtasidagi muloqot deb atash mumkin. Bular yangi davr pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo'llana boshlandi. Yurtimizda hukm surayotgan pandemiya sharoitida, ta'lim berish va ta'lim olishning yangi, zamonaviy turi keng jamoatchilikka havola etildi ya'ni masofaviy ta'limda ta'lim olishga muvaffaq bo'ldik, albatta masofaviy ta'limni biz «Talabakompyuter-simsiz tarmoqlar(internet)-pedagog» larning uyg'unlashuvimiz tasavvur eta olmaymiz. Bu kabi dars mashg'ulotlarini yo'lga qoyilishida raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etdi. Biz albatta, simsiz tarmoqlari, internet tarmoqlari va albatta kompyuter texnologiyalar bilan darsni maqsadini ushbu sharoitda amalga oshirdik. Bu esa hozirda ta'limdagi eng zamonaviy yondashuv hisoblanib, shu sabadan ham ta'limda yangicha yo'nalish olib kira oldik desak mubolag'a bo'lmaydi. Masovafiy ta'limdan tashqari raqamli texnologiya-axborot texnologiya-zamonaviy pedagogik texnologiyani uyg'unlashuviga dastur ilovalar orqali darsni tashkil etish haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltirish mumkin.

### XULOSA

Xulosa qilib, hozirda joriy etilgan va boshqa o'quv yurtlarida tashkil etilayotgan «online jurnal» dasturini, videokonfrensiyalar o'tkazishni, «videotopishmoq» ta'lim texnologiyasini va virtual stendlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shu o'rinda virtual stand tushunchasiga tushuntirish beradigan bo'lsak, virtual stand – o'quv amaliy stendi yoki o'quv-malaka ustaxonasi bo'lib, o'quvchitalabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Virtual stendlar har bir o'quvchi-talaba uchun texnikaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXAT

1. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent 2016.
2. Richard J.C, Rogers T.S. Approaches and Methods in language Teaching/Cambridge university press, - 2010.
3. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) Toshkent: 1995-yil
4. Pardayeva Maftuna Ulug'bek qizi maqolasini 1-3 betlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni PF5538 son. 05.09.2018 yil.
6. N.Muslimov, Z.Raximov, X.Qodirov "Ta'lim texnologiyalari" darslik. Toshkent-2017. 11-bet.
7. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) Toshkent: 1995-yil